Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · "Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini t... DOI: 10.5281/zenodo.24320749

ta'minlashning ustivor yo'nalishlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

IMTIYOZLI KREDITLARNING XUSUSIY TADBIRKORLIKKA TA'SIRI, KICHIK BIZNES IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISHNI OMILI SIFATIDA

Mirzayeva Shahnoza Mamat qizi
Guliston davlat universiteti, Menejment kafedrasi o'qituvchisi

Anatatsiya: Kichik va o'rta korxonalar (KO'B) butun dunyo bo'ylab iqtisodiyotning tayanchi bo'lib, ish bilan ta'minlash, innovatsiyalar rivojlanishida kichik va o'rta korxonalarni sezilarli ta'siri bor. Biroq, kichik va o'rta biznes sohasini moliyalashtirish bugungi kunda eng dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda bu ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda ko'zga tashlanadi. Kichik biznes sohasini moliyalashtirish usullaridan biri sifatida imtiyozli kreditlarni keltirishimiz mumkin. Imtiyozli kreditlar o'zining qulay shart-sharoitlari bilan kichik biznes sohasini moliyalashtirishda yaxshi vosita bo'lib xizmat qiladi, kichik biznesning imkoniyatlarini kengaytirish va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda kuchli vosita sifatida maydonga chiqdi. Ushbu maqolada imtiyozli kreditlash tizimini xususiy tadbirkorlikka ta'siri va ularni kichik biznes rivojlantirish ro'li haqida to'xtalinadi.

Kalit so'zlar: Kichik biznes, tadbirkorlik faoliyati, imtiyozli kreditlar, moliyashtirish usullar.

Kirish: O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini barqarorlashtirish, har tomonlama iqtisodiy o'sish erishish, iqtisodiyotni xususan bozor iqtisodiyotga o'tishni tezlashtiruvchi eng optimal usullaridan biri bu kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hisoblanadi. Shularni inobatga olgan holda, mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirish, uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, xususiy tadbirkorlikda tashabbus ko'rsatish, uni rag'batlantirishga bag'ishlangan bir qancha qonun, farmon va qarorlar qabul qilindi. Erkin bozor munosabatlarining keng ravnaq topishi kishilar hayotida, ularning turmush tarzida, ma'naviy va hayotiy ko'nikmalarida namoyon bo'lmoqda [1-5]. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlanishi nafaqat iqtisodiyotni barqarorligi ta'minlash, xo'jalik aloqalarini tuzatish, raqobatni rivojlantirish va bozorlarimizni iste'mol tavarlari bilan to'ldirish, innovatsiyalarni qabul qilish va iqtisodiy maqsadlarni ham ta'minlamoqda. Mamlakatimizda kichik biznesni va xususiy tadbirkorlikni yanada barqaror qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlarini kuchaytirish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarni tashkil qilish tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar, shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslar va ishlab chiqarish infratuzilmasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish to'g'risida" 2019-yil 13-avgustdagi PF-5780-son Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi huzuridagi Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" 2019-yil 13-avgustdagi PQ-4417-son qarorlari qabul qilingan.

Imtiyozli kreditlar, shuningdek, imtiyozli yoki subsidiyali kreditlar sifatida ham tanilgan, hukumatlar, notijorat tashkilotlari yoki rivojlanish moliya institutlari tomonidan maqsadli tarmoqlarni, jumladan, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash uchun taqdim etiladigan moliyaviy vositalardir. An'anaviy kreditlardan farqli o'laroq, imtiyozli kreditlar odatda past foiz stavkalari, uzoqroq to'lash muddatlari va yanada moslashuvchan shartlarga ega bo'lib, ularni moliyalashtirishda qiyinchiliklarga duch keladigan tadbirkorlar uchun ochiq qiladi.

Tadbirkorlik faoliyatidagi eng muhim to'siqlardan biri bu boshlang'ich kapitalning yetishmasligi. Imtiyozli kreditlar tadbirkorlarni o'z biznesini boshlash yoki kengaytirish


Published: 23.12.2024

Cite this article: Mirzayeva Shahnoza Mamat qizi (2024). Imtiyozli kreditlarning xususiy tadbirkorlikka ta'siri, kichik biznes imkoniyatlarini kengaytirishni omili sifatida. Emro Science and Education, 1(4). https://doi.org/10.5281/zenodo.24320749

© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.


uchun zarur mablag‘ bilan ta‘minlash orqali bu bo‘shliqni bartaraf etadi. Imtiyozli kreditlar pastroq foiz stavkalari va yengillashtirilgan garov talablari bilan moliyalashtirishni taklif qilish orqali kichik biznesga asbob-uskunalar, inventarizatsiya, marketing va boshqa muhim jihatlarga sarmoya kiritish uchun zarur bo‘lgan kapitaldan foydalanish imkonini beradi.

Imtiyozli kreditlar nafaqat tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yishga, balki o‘sish va kengayishiga ham yordam beradi. Tadbirkorlar ushbu mablag‘lardan texnologiyani yangilash, qo‘shimcha xodimlarni yollash, yangi bozorlarni o‘rganish yoki mahsulot takliflarini diversifikatsiya qilish uchun foydalanishlari mumkin. Buning natijasida kichik korxonalar o‘z mahsuldorligini, raqobatbardoshligini va daromadlarini oshirishi, umumiy iqtisodiy taraqqiyotga hissa qo‘shishi mumkin.



1-rasm. O‘zbekiston Respublikasi viloyatlar kesimida aholining faollik darajasi. (6)

O‘zbekiston Respublikasi viloyatlar kesimida aholining faollik darajasi so‘nggi yillarda sezilarli darajada o‘sganini ko‘rishimiz mumkin. 2022-yilda Jizzax viloyatida faol aholi 73% ni, Sirdaryo viloyatida esa 70,6% ni tashkil qiladi. 2016-2022 yillarda Jizzax viloyatida aholining faolligi 10,5%ga o‘sganligi grafikimizda yaqqol namoyon bo‘lgan. (1-rasm) Taxlilni chuqurror davom ettirsak Respublikamizda oxirgi besh yilda bu ko‘rsatkich 1,2%ga oshgan va 2022-yilda 73,7%ni tashkil qiladi. Innovatsiyalar tadbirkorlik muvaffaqiyatining markazida yotadi. Imtiyozli kreditlar tadbirkorlarga innovatsion g‘oyalar, tadqiqot va ishlanmalar, mahsulot xizmatlarni yaxshilash uchun moliyaviy resurslar bilan ta‘minlaydi. Bu ilg‘or texnologiyalarni ishlab chiqish, noyob biznes modellarini yaratish yoki barqaror amaliyotlarni yo‘lga qo‘yish bo‘ladimi, arzon moliyalashtirishdan foydalanish tadbirkorlarni o‘z sohalarida ijobiy o‘zgarishlarni amalga oshirishga undaydi.



2-rasm. Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami bandlikdagi ulushi. (7)

O‘zbekiston Respublikasi kichik tadbirkorlik subyektlarining jami bandlikdagi ulushi viloyatlar kesimida ko‘rishimiz mumkin. O‘zbekiston Respublikasi 2023-yilda jami bandlikdagi ulushi 74,1 % (foiz)ni, Sirdaryo viloyatida esa bu ko‘rsatkich 72,5 % (foiz) ni, Toshkent viloyati jami bandlikdag i ulushi 70,3% (foiz)ni tashkil qiladi (2-rasm). Taxlilni chuqurror davom ettirsak Respublikamizda oxirgi besh yilda bu ko‘rsatkich, Sirdaryo viloyati bandlik ulushi Toshkent viloyatining bandlik ulushidan 2,1% (foiz)ga yuqoriligi grafigimizda namoyon bo‘lgan. Kichik biznes, ayniqsa, ishsizlik darajasi yuqori bo‘lgan iqtisodlarda yoki norasmiy sektorlarda ish o‘rinlarini yaratishda muhim vositadir. Imtiyozli kreditlar orqali tadbirkorlarning imkoniyatlarini kengaytirish orqali hukumatlar va tashkilotlar bandlik imkoniyatlarini rag‘batlantirishi, qashshoqlikni kamaytirishi va inklyuziv o‘sishni rag ‘batlantirishi mumkin. Kichik biznesning kengayishi va rivojlanishi natijasida ular nafaqat o‘z korxonalarida, balki ta’minot zanjirlari va mahalliy hamjamiyatlarda ham ish o‘rinlari yaratib, ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlar va barqarorlikni ta‘minlamoqda.

Tadbirkorlik tabiatan xavflarni o‘z ichiga oladi va an’anaviy moliyalashtirish variantlariga kirish yuqori foiz stavkalari va qat’iy to‘lov shartlari tufayli bu risklarni kuchaytirishi mumkin. Imtiyozli kreditlar tadbirkorlarni arzon sarmoya va moslashuvchan to‘lov jadvallari bilan ta’minlash orqali moliyaviy zaifliklardan himoya qiladi . Bu defolt va bankrotlik xavfini yumshatib, kichik biznesga iqtisodiy noaniqliklarga bardosh berish va uzoq muddatli barqarorlikka erishish imkonini beradi.

Imtiyozli kreditlar kichik biznes uchun ko‘plab imtiyozlar bersa-da, ularning samaradorligi turli omillar, jumladan, ariza berish jarayonlarining shaffofligi, tegishli monitoring mexanizmlari va barqaror moliyalashtirish manbalariga bog‘liq. Bundan tashqari, xususiy tadbirkorlikka imtiyozli kreditlarning ta’sirini maksimal darajada oshirish uchun moliyaviy savodxonlik, salohiyatni oshirish va bozorga kirish kabi masalalarni hal etish zarur.

Xulosa va takliflar:

Xulosa qilib aytganda, imtiyozli kreditlar kichik biznesning imkoniyatlarini kengaytirish, xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Imtiyozli kreditlar tadbirkorlarga arzon sarmoyadan foydalanish imkoniyatini berish, biznes o‘sishi va innovatsiyalarni rag‘batlantirish, bandlik imkoniyatlarini yaratish

va moliyaviy risklarni yumshatish orqali jonli va barqaror iqtisodiyotni shakllantirishga hissa qo‘shadi.

Siyosatchilar, moliya institutlari va rivojlanish agentliklari kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash muhimligini tan olishda davom etar ekan, imtiyozli kreditlarning keng tarqalishi butun dunyo bo‘ylab inklyuziv va barqaror iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishi mumkin.

Bir so‘z bilan aytadigan bo‘lsak, mamlakatimizda tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirish bugungi kunda davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Prezidentimizning so‘zlari bilan aytganda, biz faqat faol tadbirkorlik, tinimsiz mehnat va intilish orqali taraqqiyotga, farovon hayotga erisha olamiz.

Foydanilgan adabiyotlar

1. Гражданский кодекс Российской Федерации. Части первая и вторая, -М. : Издво-НоваяВолна‖,1996.–512с.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi huzuridagi Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 2019-yil 13-avgustdagi PQ-4417-son qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-avgustdagi “Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasini tashkil qilish to‘g‘risida”gi qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 5-oktabrdagi “Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta’minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni.

5. Bakhtiyarovna, Y. E. (2019). Portfolio as an assessment tool for individualized instruction. Достижения науки и образования, (5 (46)).

6. https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/labor-market-2 dan foydalanib muallif ishlanmasi

7. https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/small-business-and-entrepreneurship-2 dan foydalanib muallif ishlanmasi.

TADBIRKORLIKNING BARQAROR IQTISODIY O‘SISHNI TA’MINLASHDA O‘RNI VA TA’SIRI

Axmadoxunova Xolisxon Ortiqovna
Farg‘ona politexnika instituti, “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi assistenti
xolisxon.axmadoxunova@ferpi.uz

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi va barqaror iqtisodiy o‘sishni orasidagi o‘zaro bog‘liqlik haqida mulohaza yuritiladi. Barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda tadbirkorlikning muhim ahamiyat sifatida uning yangi yo‘nalishi ya’ni ekologik va iqtisodiy muvozanat konsepsiyasiga asosiy e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, tadbirkorlik, iqtisodiy o‘sish, iqtisodiy rivojlanish, ekologik omilar.

Iqtisodiy o‘sish va mamlakat farovonligini oshirish har doim iqtisodiy tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishi bo‘lib kelgan. Tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy o‘sishga ta’siriga kelsak, biznes muhiti muhim muammolardan biridir. O‘zbekistonda islohotlar va ochiqlikning oshganidan so‘ng, iqtisodiy tizim rejalashtirilgan tizimdan